

## UY HAYVONLARI NOMLARI VA ULAR BILAN BOG‘LIQ HARAKATLARNING NOMLANISHI, ULAR UCHUN QO‘LLANADIGAN UNDOVLAR

**Jabborova Nigina,**

*Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU*

*Folklorshunoslik va dialektologiya 2- kurs magistr*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Galaosiyoning o‘zbek va tojik aholisi uchun umumiy bo‘lgan uy hayvon nomlari, ularning harakatlarini qanday so‘zlar orqali ifodalash, ularni haydash-chaqirish bilan bog‘liq undovlar, ularga atalib qo‘yiladigan maxsus nomlar haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, maqolada uy hayvon nomlari qo‘shib qo‘llaniladigan maqol va iboralar, ularning ma‘nolari tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** uy hayvon nomlari, undov so‘zlar, tojik tili, maqol, ibora, erkalatish, chaqirish, haydash.

**Abstract.** This article discusses the names of domestic animals that are common to the Uzbek and Tajik populations of Galaosiyu, the words used to describe their movements and actions, the interjections related to herding and calling them, and the special names given to them. The article also analyzes proverbs and idioms that incorporate the names of domestic animals, as well as their meanings.

**Keywords:** names of domestic animals, interjections, Tajik language, proverb, idiom, terms of endearment, calling, herding.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются наименования домашних животных, общие для узбекского и таджикского населения Галаасии, анализируются слова, описывающие их действия, а также междометия, связанные с подзыванием и отгоном животных, и даваемые им специальные клички. Кроме того, в статье анализируются пословицы и идиомы, в которых используются названия домашних животных, и их значения.

**Ключевые слова:** наименования домашних животных, междометия, таджикский язык, пословица, идиома, ласка, подзывание, отгон.

**Kirish.** Ma‘lumki, uy hayvonlariga insoniyat tomonidan xonakilashtirilgan va boqiladigan jonzotlar kiradi. Bilamizki, uy hayvonlari qadimda yovvoyi bo‘lgan keyinchalik insonlar ularni xonakilashtirgan. Buxoro hududi aholisining boshqa hududlarga nisbatan o‘ziga xoslik mavjudki, buni e‘tirof etmaslikning iloji yo‘q. Ya‘ni, Buxoro shevalarida ikki tillilik mavjud bo‘lib, bu jarayonining kuchayishida aholisi, asosan, tojik tilida so‘zlovchi shaharlarning o‘ssishi, rivojlanishi bilan bir qatorda, bunday shaharlarda o‘zbek tilda so‘zlovchi aholi o‘rtasidagi savdo-sotiqning intensiv tus olishi muhim rol o‘ynagan.

**Adabiyotlar sharhi.** Buxoro aholisi bilan o‘zbek tilida so‘zlashuvchi atrof tumanlarning aholisi o‘rtasida 1920-yilgacha xususiy savdo va iqtisodiy aloqalar davom etib kelganligi M.Mirzayev tomonidan qayd etiladi. [Mirzayev, 1969:26]. Buxoro tumani “ikki tilli” aholisining ko‘pchiligi uchun tojik tili shu darajada qon-qoniga singib ketganki, buni hattoki uy hayvon nomlarida ham kuzatishimiz mumkin. Shuni ta‘kidlash lozimki, buning asosiy sabablaridan biri, qadimdan tojik va o‘zbek xalqlarining chorvachilik sohasidagi yaqin aloqalaridir. Tarixga nazar soladigan bo‘lsak, Buxoro qadimda savdo-

sotiq markazlaridan biri bo'lganligi bois, tojik va o'zbek millati aholisi o'zaro mol ayirboshlash maqsadida tabiiy ravishda muloqot qilishga ehtiyoj sezishgan. Natijada ayrim so'zlar, xususan uy hayvon nomlari o'zaro aholi nutqiga singib, lug'at tarkibiga kirib borgan. Keyingi sabablaridan biri esa, bu ikki xalq yaqin hududlarda yashaganliklari va o'zaro quda-andachilik munosabatlari natijasidir. Uy hayvon nomlarining ba'zilar ababiy tilga mos kelsa-da, ammo ba'zilarida tojik tili unsurlari yaqqol ko'zga tashlanishi mumkin. E'tiborli jihati shundaki, so'zlar sof tojik tilida talaffuz qilinmaydi, bu nomlarni o'zlarining shevalariga, nutqlariga mos tarzda qo'llashadi. Galaosiyo aholisi orasida hayvonlarning jinsini tavsiflashda maxsus nomlar, ya'ni *moda-* urg'ochi, *nar-* erkak so'zlari juda keng qo'llaniladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Misol qilib keltiradigan bo'lsak, *modgav* – so'zini olaylik. Bu so'z urg'ochi sigir ma'nosida qo'llanilib, ikki komponentdan tashkil topgan, ya'ni tojik tilida *moda-* urg'ochi, *gav-*sigir ma'nolarini bildiradi. So'zning birinchi komponentidagi **-a** tovushi tushib qolganligini ko'rishimiz mumkin. Bu hayvon nomi tojik tilidan o'zlashgan so'z bo'lib, Galaosiyo shevasida keng qo'llanadi.

**Tahlil va natijalar.** Galaosiyo shevasida *modgav* - *sigirni* sog'ish jarayonida ko'proq sut olish maqsadida, mehr bilan maxsus ismlar qoyib erkalatadilar. Masalan *Bosh*, *Mosh*, *Masha* nomlari bilan murojaat qilishadi. Sigirning erkagi *buqa*, bolasi esa *go'sola* deyiladi. Shevada sigirning bolasi *go'sola* so'zi qo'llangan ibora ham bor, "Go'sola sad sola". Bu maqol esa, asosan, bolalarga nisbatan qo'llanib, xalq jonli tilidagi "g'alcha" so'ziga monanddir, ya'ni yuz yil o'tsa ham bu narsani tushunib yetolmaysan ma'nosida kattalar tomonidan qo'llaniladi. Sigirni haydash-chaqirish uchun "ho'sh, yuvvosh-yuvvosh" kabi undov so'zlar qo'llanib, ba'zilar esa sigirning boshini egish maqsadida "mosh, mosh" undov so'zini ishlatdi. Galaosiyo shevasida qaysar, yovvoyidek bo'yin egmaydigan uy hayvonlarini *charf*, *chars* deb nomlashadi. Taqqoslaydigan bo'lsak, Qashqadaryo shevalarida qaysar, gapga kirmaydigan otlarni "badqiliq" deb nomlashadi. Sog'iladigan uy hayvonlarini qaysarlik qilganida oyog'ini ip bilan bog'lab, majburlab sog'ish- *ishkel* deyiladi. Uy hayvonlarining shoxi bilan urishini ya'ni shoxi bilan suzishini "shox zad", sog'ish jarayonida oyoqlari bilan urmoqchi bo'lishini "ling zad", "lingak" tarzida, dumi bilan urishini esa "dum zad" tarzida qo'llaydi. Sog'ish jarayonida qaysarlik qilib uradigan hayvonlar qaysi a'zosi bilan urishi nuqtayi nazaridan turlicha nomlanadi. Ularga beriladigan ovqatlar umumiy "yem" deb ataladi. Ovqatlarining turlari esa, kunjola-shirot, shluxa- kepak, sabo'z-beda, ka- somon. Bu atamalar ham tojik tilidan ko'chganligini yaqqol ko'rishimiz mumkin

Galaosiyo shevasida qo'y o'rnida *barra*, *go'span* so'zi qo'llanilib, *barra-* urg'ochi qo'y, *tagal* esa- qo'chqor ma'nolarida keladi. Sof tojik tilida esa *tagal* atamasini faqatgina qiyshaygan shoxlari bor qo'chqorlarga nisbatan ishlatishar ekan. Shoxlari yoq tagalni – *kaltagal* deb nomlashadi. Shuningdek, *barra*, *tagal* so'zlariga *-cha* kichraytirish, erkalash

qo‘shimchasi qo‘shiladi va bu esa shu hayvonning bolasiga nisbatdan ishlatiladi. Bu hayvonlarni haydash, chaqirish jarayonida odatda “*brr, brr*” kabi undov so‘zi qo‘llaniladi. Galaosiyoda baquvvat, zabardast yigit dunyoga kelganda chaqaloqni ko‘rishga kelgan yaqinlar tomonidan “ox bu bola tagalcha-ku” tarzida maqtab qo‘yishadi. Shuningdek, qo‘yning “*qazoqi*”, “*arabi*” “*duraga*” degan turlari ham mavjud. Duraga qo‘y esa ham qazoqi ham arabi aralashgan turi hisoblanadi. Bularning esa o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, “*qazoqi*” qo‘y nozik va juda e‘tibor talab qiladigan, junlari “arabiga nisbatan kamroq bo‘lib, issiqlikka bardosh berolmaydi. Qo‘yning qazoqi turning go‘shiti ko‘p bo‘lib, bo‘yi baland bo‘ladi. “*Arabi*” qo‘y esa serjun va terisi jozibador bo‘lib, issiqqa juda bardoshli va go‘shiti nisbatan kamroq bo‘lganligi bois, uni asosan cho‘lda ko‘paytiriladi. Buxoroda chorvachilik shu darajada chuqur ildiz otganki, qo‘yning junidan kiyim-kechak, bosh kiyim, oyoq kiyim, gilam, sumkalar to‘qishadi. Bulardan eng qimmatbaho turi, homilador “*barra*” dan qo‘zichoq olinib, uning terisidan turli xil kiyim-kechaklar tikib, sotishadi. Bu teri juda chiroyli, yaltiroq, junlar esa bir tekisda bo‘ladi. Endi tug‘ilgan qo‘zichoq terisidan tayyorlangan kiyim-kechaklar esa sal jingalakroq bo‘lib, narxi esa nisbatan hamyonbop bo‘ladi. Kattaroq yoshdagi qo‘ylardan esa asosan gilam, sumkalar tikishadi. Chunki bu teri yosh teriga nisbatan dag‘alroq va jilodorligi nisbatan kamroq bo‘lib, narxi ham arzon bo‘ladi. Buxoroda bu teridan tayyorlangan kiyim-kechaklar, “*karako‘lcha*” deb nomlanib, juda ko‘p miqdorda eksport qilinadi. Shu bilan birga, Buxoro udumlari orasida to‘y marosimidan so‘ng, kelinni kuyovning xonadoniga olib borish ya‘ni “*kelin biyori*” da maxsus urf- odat mavjud: kelin uy ostonasidan kirishda uning oyog‘i ostiga qo‘y so‘yilib qon chiqariladi. Kelin bilan birga kuyovning xonadoniga kelgan qarindoshlarga shu qo‘y go‘shidan ovqat tayyorlanib, hamma qarindoshlar birga tanavvul qilishadi. Bu yangi kelinning shu xonadonga qut-baraka olib kirishiga ishonch ramzidir.

Galaosiy o xalqi orasida echki o‘rnida *gechchi* so‘zi qo‘llaniladi. Bu so‘z tojik tili ta‘sirida ba‘zi fonetik o‘zgarishlarga uchragan deya olamiz. Sarka, takka – so‘zlari sof tojik tilidan ko‘chgan bo‘lib, echkining nari ya‘ni erkagi. *Sarka*- echkilarning sardori, yo‘l ko‘rsatuvchisi ma‘nosida keladi. Sarkaning mo‘yloviga “zango‘la” ya‘ni qo‘ngiroq osilgan, uning vazifasi esa uxlab qolganda qochsa, cho‘ponni uyg‘otishdir. Echkining modasi (ayoli) - *buz*, bolasi esa – *buzcha*, o‘loqcha deb ataladi. Takkaning buzdan farqi uning uzun soqoli bo‘ladi. Shuningdek, kichkina yoshdagi qizlar sochini ikkiga ajratib yig‘ganida “*ooo bu qizcha sochini gechchi qilibdiku*” tarzida ham qo‘llaniladi. Echkini chaqirishda- “*biji biji*”, “*gich*” esa haydashda qo‘llaniladi. Galaosiyoda “*ko‘bori*” nomli yangi o‘tkazilib, bunda baquvvat jang qila oladigan echkilar tanlanib, urishtirishgan. Aholi orasida echki sutini jigarga foydali deb ishonilgan.

*Xar* – aholi orasida eshshak uy hayvonining o‘rnida qo‘llanilib, narsa tashish vositasi sifatida foydalaniladi. Jinsini ajratish uchun *modaxar*- ayol jinsi, *narxar*- erkak *eshakka* nisbatan qo‘llaniladi. *Xo‘tik* ga nisbatan esa *kurra*, *kurracha* so‘zlari qo‘llaniladi.

Galaosiyoda bu uy hayvoniga nisbatan qoʻllanadigan maqol ham bor “oʻylaya xar kunat-oʻylovni eshshak qilsin”, yaʼni sen xavotirlanma oʻylovni eshshak qilsin, yaʼni boqi-begʻam boʻlishlilik maʼnosida qoʻllaniladi. Eshshakni haydashda qoʻllaniladigan undov soʻzi “xixx” dir. Aholi vakillari orasida eshak bilan bogʻliq boʻlgan bir anʼana mavjud. Yaʼni kulrang eshshak suti saratonga daʼvo deya ichilgan. Oʻrganishlar natijasida shuni aytish mumkinki, bu kasallikka daʼvo toʻgʻrisidagi ishonch asosan katta yoshlilar tomonidan aytiladi. Gapga kirmaydigan, qaysar eshaklarni Galaosiyoholisi “jittak” deb ataydi.

*It – sag, kuchuk* tarzida Galaosiyoholik tili aholisi nutqida keng ishlatiladi. Sag soʻzi kuchukka nisbatan kamroq qoʻllanilib, asosan it muchaliga nisbatan *sag muchaliman* tarzida aytiladi. Ularni chaqirishda “boʻh boʻh” yoki “kut kut” “ma ma” undovi, haydashda esa “tur” undov soʻzi ishlatiladi. Shuningdek, xalq ogʻzaki ijodiga tegishli boʻlgan, hazil tariqasida ishlatiladigan ibora ham mavjud, bu narsani nima qilay deb soʻraganda, hazillashib “*kuchuk hav goʻyat danashba havte - it hurkasa ogʻziga tashla*” tarzida qoʻllaniladi. Ayollar tomonidan juda qoʻpol oʻxshatish ham mavjud “*mard kas misoli kuchuk- erkak kishi misoli it*” tarzidagi qotib qolgan ibora boʻlib, bu asosan xiyonatkor erkaklarga nisbatan ishlatiladi. “*Begona sagi devona*” maqoli esa, begona odam xuddi Devona it singari kabi aholi orasida juda keng qoʻllaniladi.

*Pishak* – mushuk ayrim aholi orasida “*pishik*” tarzida ham qoʻllaniladi. Mushuk bolasiga nisbatan *pishakbacha* soʻzi ishlatiladi yaʼni *bacha*-bola degan maʼnoni anglatadi. Mushukni chaqirish uchun “*kis kis*” undov soʻzi ishlatilib, haydash uchun “*pisht*” undov soʻzi qoʻllaniladi. Erkak mushukning kattasini Galaosiyoholisi *mavlon pishak* tarzida atashadi, buning atalishining sababi esa mushukning yoshi katta boʻlgan sari koʻp miyovlar ekan.

*Asp*- tojik tilidan olingan boʻlib, ot maʼnosini beradi. Otga nisbatan “*cho, cho*” undov soʻzi ishlatiladi. Galaosiyoholisi “*Sunnati*” marosimida xatna qilingan bolani otda olib kirishib, unga hadyalar berishadi.

Tovuq maʼnosida shevada *murgʻ, mokiyon* soʻzi tanlanib, urgʻochi tovuqqa nisbatan qoʻllaniladi. Ammo asli tojik tilida *murgʻ* umumiy parrandalarga nisbatan qoʻllanilar ekan. Erkagiga nisbatan *xuroʻz*, bolasiga nisbatan esa *chujacha* tarzida ishlatiladi. Bu yerda esa tojik tiling taʼsiri natijasida fonetik oʻzgarish yaʼni tovush moslashishi yuz bergan boʻlib, aslida esa adabiy tilda xoʻroz va joʻjadir. Shuningdek, bu parrandani chaqirishda “*beh,beh,beh*”, haydashda “*kisht*” undov soʻzlari qoʻllaniladi. Urushqoq tovuqlarni – *kulangi* deb nomlashadi.

Galaosiyoholisining koʻp qismi xonadonlarida quyvon parvarish qilishadi. Tojikzabonlar bu uy hayvonini *tavushqon* degan soʻz bilan nomlashadi. Bu soʻz ham sof tojik tilidan koʻchgan soʻz boʻlib, aholi orasida juda keng qoʻllaniladi. Galaosiyoholikning baʼzi joylarida quyvonni *xargoʻsh* deb nomlashadi. Buning asosiy sababi esa xar- eshak, goʻsh-

quloq ma'nosida ya'ni, eshakning qulog'iga o'xshagani uchun shunday nomlangan. Galaosiyoning chekka joylarida quyon so'zi o'rnida *palang* so'zi qo'llaniladi.

*Ushtur* – tuya ma'nosida kelib, asosan Galaosiyoning chetroq joylarida, kengroq bo'lgan dalalarda, otlar bilan birga boqiladi. Tuyaning bolasi – *ushturbacha* atamasi qo'llaniladi. Galaosiyoholisi tuya sutining saxr kasaliga da'vo deya ichishgan Ba'zi aholi vakillari xonadonlarida toshboqa ham parvarish qilishadi va *sangpo'sh* deb nomlashadi. Ya'ni *sang-tosh*, *po'shidan*-kiymoq ma'nolarida keladi. Galaosiyoning chekka hududlarida toshboqa *sangpusht* deb ham qo'llanib, *sang-* tosh va *pusht-* orqa ma'nosida ishlatiladi.

*Bedona* – bu parranda nomi bo'lib, tojik tilida qabul qilingan so'zdir. Bu keyinchalik adabiy tilga ham *bedana* tarzida qabul qilingan. Galaosiyoholisi hosil bayranida bedanalarni urishtiradi va bu juda qadimdan saqlanib qolgan an'anadir. Parrandalaardan kurka, o'rdak, g'oz kabi parranda nomlari o'zgarmay o'z holicha saqlanib qolgan.

**Xulosa** o'rnida shuni aytib o'tish lozimki, Buxoro oldinlari savdo- sotiq markazlaridan biri bo'lganligi bois turli xil millat vakillari mol ayirboshlash maqsadida kelishgan va insonlar bir-biri bilan so'zlashishga ehtiyoj sezishgan. Natijada Galaosiyoholisiga ikkinchi tili sifatida (ba'zilarida hattoki birinchi til sifatida) tojik tilida so'zlashish asrlar osha davom etib kelayotgan hodisadir. Uy hayvon nomlarining tojikcha varianti bevosita aholi nutqiga ta'sir etgan deya olamiz. Aholi vakillari esa tojik tilidan o'zlashgan uy- hayvon nomlarini o'zlarining nutqiga mos tarzda talaffuz etib kelishyapti. Uy hayvon nomlari bilan bog'liq turli xil udum, an'ana va musobaqalar nechi asrlardan buyon saqlanib, hozirgacha turmush tarzining bir qismiga aylanib kelmoqda.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Allaberdiyev Alijon. Buxoro o'g'uz shevalari leksikasi. –Toshkent, 2018
2. Mirzayev Mustaqim. O'zbek tilining Buxoro grupp shevalari. –Toshkent: Fan, 1969
3. Ўзбек шевалари лексикаси. –Тошкент: Фан, 1966.
4. Ўзбек тилининг изохли лугати. 5 жилдли. –Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007.
5. Ўзбек тилининг Бухоро группа шевалари. –Тошкент: Фан, 1969.